

2. Elektron tarzidagi operatsiyalarning xavfsizligini past darajadali sababli qallopliklar qilish uchun imkon beradi. Men ushbu muammoni yechish uchun asosiy iqtisodiy sohalarda ishonchli mijozlar bilan ishlashni taklif qilaman

Mening fikrimcha O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga asta sekinlik bilan kirib borish sabablaridan biri uni inkor qilish yoki 20-yil ichida iqtisodiyotni virtuallashayotganini past darajada qabul qilishdir.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi barqaror turizm va yashil infratuzilmaga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual iqtisodiyot orqali turizmni barqaror rivojlantirish mumkin, bu esa tabiiy resurslarni asrab-avaylash va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Orinov, D.O. "Automobillar uchun ecologic toza yonilgi olish technologysi." *Iqtisodiyot va jamiyat* 12-2 (79) (2020): 261-264.

2. O'rinov, D. O., and O. E. Maxmudov. "IMPROVING TRAFFIC PREVENTION OF ROAD TRAFFIC ACCIDENTS." *Innovative Technologica: Methodical Research Journal* 3.05 (2022): 11-18.

3. O'rinov, D. O., and O. E. Maxmudov. "Improving Traffic Prevention Of Road Traffic Accidents Yol Transport Hodisasi Sodir Bolganda Yollarda Uchraydigan Tirbantlikni Oldini Olish Ishlarini Takomallashtirish." *Innovative Technologica: Methodical Research Journal* 3.5 (2022): 1-8.

4. O'rinov, D. O., and O. E. Maxmudov. "Improving Traffic Prevention Of Road Traffic Accidents Yol Transport Hodisasi Sodir Bolganda Yollarda Uchraydigan Tirbantlikni Oldini Olish Ishlarini Takomallashtirish." *Innovative Technologica: Methodical Research Journal* 3.5 (2022): 1-8.

5. URINOV, DU va boshqalar. "Kauchuk mahsulotlarning haroratga qarab xususiyatlarini o'rganish". *JournalNX* 6.05 (2020): 156-158.

6. O'rinov, Dilmurod, Rasulbek Sobirov, Zohidullo Maxammadjonov. «PAHTA SELET SETILOVCHI UCHITILGAN UCHILGAN QUVON QUVVATLI, TOKORLIK PARAMETRELARI VA ULARNING TEZLIK REJIMLARINI ASOSLANISH». *Ta'lim tizimi: zamonaviy ilmiy bilimlar sohasidagi innovatsiyalar*. 2019. 338-341.

7. Ulmasboevich, O'rinov Dilmurod. "Mahalliy xomashyodan foydalangan holda yengil va ixcham plastik quvurlar qopqog'i ishlab chiqarishni tashkil etish". (2022).

8. Ulmasboevich, U. D. "IMPROVING TRAFFIC SAFETY OF VEHICLES AT SECONDARY CROSSROADS WITH LIMITED VISIBILITY OF HIGHWAYS." (2022).

9. Ulmasboevich, O'rinov Dilmurod va Raxmonov Xurshid Nurmuhammad o'g'li. "BIOYOQILGILISH SANOATI VA UNING IMKONIYATLARI". *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 1.5 (2021): 14-21.

10. Насиров, И. З., Д. Ў. Уринов, and X. Н. Рахмонов. "(2021). Плазмали электролизерни синаш." (2021).

11. O'rinov, DO. "MAHALLIY POLIMER CHIQINDILARIDAN QUVUR QOPQOQLARI UCHUN POLIMER KOMPOZITSION MATERIAL TARKIBINI YARATISH." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.16 (2023): 223-227.

#### **EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIYANI MUHOFAZA QILISH: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L.**

**Tirkacheva Farangiz Sur'at qizi**

TDIU "Turizm va mehmonxona biznesi" kafedrası

Tayanch doktoranti

[farangiztirkacheva77@gmail.com](mailto:farangiztirkacheva77@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur tezis ekoturizm va uning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Ekoturizm tabiiy resurslarni asrab-avaylash bilan bir qatorda mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror turizm infratuzilmasini yaratishga qaratilgan. Maqolada ekoturizmning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar SWOT tahlil yordamida tahlil qilingan. Shuningdek, ekoturizmni rivojlantirishda ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish, mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash va barqaror infratuzilmani shakllantirish muhimligi ta'kidlangan. Tabiatni saqlash va sayyohlar oqimini boshqarish uchun innovatsion yondashuvlar taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekoturizm, ekologiya, barqaror turizm, tabiiy resurslarni muhofaza qilish, SWOT tahlil, innovatsion texnologiyalar, mahalliy jamoalar, qayta tiklanadigan energiya, turizm infratuzilmasi, iqlim o'zgarishi.

**Kirish:** Bugungi kunda turizm sanoati global iqtisodiyotning muhim bo'g'inlaridan biriga aylangan. Har yili dunyo bo'ylab millionlab sayyohlar turizm manzillariga tashrif buyurib, ularning iqtisodiy ahamiyati ortib bormoqda. Biroq, turizmning ayrim shakllari, ayniqsa massali turizm, tabiiy resurslar va ekotizimlarga zarar yetkazib, ularning barqarorligini buzishi mumkin. Suv resurslarining ifloslanishi, yerlarning o'zlashtirilishi, havo va atrof-muhitning ifloslanishi kabi salbiy ta'sirlar turizm faoliyatining noxush oqibatlari sifatida ko'rinadi. Bu holat, ayniqsa, rivojlanayotgan va tabiiy resurslarga boy hududlarda sezilarli darajada namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, ekoturizm alohida ahamiyat kasb etadi. Ekoturizm nafaqat iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishni, balki tabiiy muhitni asrab-avaylashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ekoturizmning asosiy maqsadi — tabiiy hududlarda barqaror turizmni tashkil etish orqali tabiatni saqlash va mahalliy jamoalar manfaatlarini himoya qilishdir. Ekoturizmning yuksak ekologik tamoyillari unga sayyohlik sanoatining barqarorligi va atrof-muhitni himoya qilish borasida katta imkoniyatlar yaratadi.

**Asosiy qism:** O'zbekistonda turizmni rivojlanishining asosiy prinsiplarini ilmiy tadqiqotimizda quyidagilar bilan bog'ladik. Vizual ko'rinishdagi bu modelni ikki ko'rinishi ya'ni ob'yektiv va sub'yektivga ajratib olindi. Obyektiv ko'rinishda ya'ni:

- ☐ ijtimoiy;
- ☐ madaniyat;
- ☐ tabiat;
- ☐ tizimli;
- ☐ iqtisodiy bo'limlarga ajratib olindi.

Ijtimoiy rivojlanish prinsiplari nimaga xizmat qiladi: turizm borgan hududda yangi ish o'rinlarini paydo bo'lishi yoki yaratilishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar kuzatiladi. Bunda mahalliy aholini yashash tarzi ham ijobiy tomonga yaxshilanishi kuzatiladi. Tadbirkorlikda mahalliy ishlab chiqaruvchilar faoliyati ham yaxshi tomonga siljishiga olib keladi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari yo'lga qo'yiladi. Turist tashrif buyurgan hududda joylashtirish xizmatlari va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bu jarayonlar hududlarda ijtimoiy rivojlanishga olib keladi va odamlarni yashash sharoitini yaxshilaydi.

Turizmni rivojlantirish prinsiplarini ob'yektiv ko'rinishi bugungi kun iqtisodiyotiga mos ravishda ishlab chiqildi.

Prinsipni sub'yektiv yondoshuviga modeli biroz keng qaralgan holda quyidagi bo'limlarga ajratildi.

Davlat boshqaruv organi sifatida va shaxs, biznes, investor rivojlanish prinsiplariga ajratildi.

Davlat turizmni rivojlantirish prinsiplarida asosiy rolni bajaradi. Turizmni rivojlanishida davlatning ishlab chiqargan qonun hujjatlari moliyaviy munosabatlar investision loyihalarni amalga oshirish tartibini ishlab chiqish va nazoratni olib borishga, kadrlar menejmenti va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, xalqaro hamkorlik munosabatlarida imtiyozlar ham o'zaro, ham bir tomonlama va valyutani tartibga solishning maxsus byudjet rejimlari va viza rejimlarini yo'lga qo'yish, xalqaro tajribalar qo'llashda yuridik va jismoniy shaxslarni qo'llab

quvvatlash, turizm sohasidagi xalqaro kelishuvlar va bitimlarni yo'lga qo'yish nazorat qilish, faoliyat yo'nalishlarini qo'llab quvvatlash, iqtisodiyot, jamiyat yoki ekologiyaga zarar yetmaslik bo'yicha cheklovlar o'rnatish, UNWTO shartnomalari va prinsiplariga rioya qilish, imtiyoz va preferensiyalar, korxonalar, tashkilotlarga faoliyatning ayrim turlarini qo'llab-quvvatlash, ichki turizmni soliq larni kamaytirish, bojxona to'lovlari bo'yicha chegirmalar, to'lovlardan ozod qilish, foydali kreditlar berish, investisiya va innovasion xarajatlarni moliyalashtirish uchun investisiya soliq imtiyozlari va maqsadli soliq imtiyozlari berish, axborot erkinliklari ta'minlashga xizmat qilishi kerak.

Madaniyat rivojlanishida ishlab chiqilgan prinsiplar: ichki turizmni hududlarda madaniy qadriyatlarni soqlanishi va yo'qolib ketishini oldini olish kuzatiladi. Xalq og'zaki ijodi, xar xil o'yinlar, raqs va urf-odatlarini, qarindosh urug'chilik rishtalari saqlanib qolinadi.

Tabiat bilan bog'lik rivojlantirish va uni asrash prinsiplariga quyidagilarni ko'rishimiz mumkin: Sof atrof-muhitni asrash, hududlarni va tabiatni ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, bio xilma-xillikni asrash va rivojlantirishni rag'batlantirish.

Tizimli rivojlanish prinsiplari deganda: turizmni barcha jabhalarida boshqaruvni yo'lga qo'yish va uni rivojlantirish uchun harakat qilish.

Iqtisodiy rivojlanish prinsiplari bular: turizmni narx siyosatini nazorati va uni ushlab turish. Turizmni kredit berishni ishlab chiqish va turistlarga yanada yengilliklar ishlab chiqish. Soliq va fiskal siyosatni turistlarga mos qilib ishlab chiqish. Ichki turizmni bojxona soliq lari va to'lovlari olib tashlash va barqaror rivojlanishi uchun turistlarga va turistlarga xizmat ko'rsatadigan tadbirkorlarga yengillik berishdan iborat. Ichki turizmni xizmat ko'rsatadigan sohalarni rivojlanishiga intensiv rag'batlantirish va rivojlanishiga ko'maklashish. Samarali iqtisodiy me

Ekoturizm rivojlanayotgan mamlakatlar uchun katta iqtisodiy imkoniyatlarni taqdim etadi, ammo shu bilan birga, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik maqsadida ehtiyotkorlik bilan yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda ekoturizmning global bozori yildan yilga o'sib bormoqda va bu sanoatning kelajagi, ayniqsa ekologik xavfsizlikni ta'minlash, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanadi.

Ushbu tezis ekoturizmning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi o'rni, uni rivojlantirishda ekologiyani himoya qilishning zaruriyati va bu jarayonning global miqyosdagi ahamiyatini o'rganadi. Ekoturizmning kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlar va tahdidlarni SWOT tahlil yordamida chuqurroq tahlil qilish, ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish, mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash va barqaror infratuzilmani shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi. Bularning barchasi tabiatni saqlash va sayyohlar oqimini boshqarish uchun innovatsion yondashuvlar yaratishga yo'l ochadi. Maqolada ekoturizmning istiqboli, uning turizm va ekologiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va barqaror rivojlanishga bo'lgan ta'siri yoritiladi.

### **Ekoturizm va uning ahamiyati:**

Ekoturizm — ekologik toza va barqaror sayohat turlarini o'z ichiga olgan turizm shakli bo'lib, u atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatishni maqsad qiladi. 2021-yilda global ekoturizm bozori 181 milliard dollardan oshib, 2022-yilda 245 milliard dollarga yetdi. Bu ko'rsatkich 2027-yilgacha 454 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda (Statista). Ushbu turizm turi ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan.<sup>231</sup>

Ekoturizmning asosiy maqsadi tabiiy hududlarda barqaror turizmni tashkil etish orqali tabiatni saqlash va mahalliy jamoalar manfaatlarini himoya qilishdir. Ushbu turizm quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

<sup>231</sup> "Statista"ning ekoturizm bozor hajmi haqidagi ma'lumotlar (Statista, 2021). Statista - Global Ecotourism Market (<https://www.statista.com/statistics/1175154/global-ecotourism-market-size/>) (Statista, 2021).

Tabiiy resurslarni saqlash: Ekoturizm ekologik zararni kamaytirish va biologik xilma-xillikni asrash uchun mo'ljallangan. Maxsus choralar ko'rib, turizm faoliyati natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan zararlar oldini oladi.

Mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash: Mahalliy aholini turizm faoliyatiga jalb qilish ularning iqtisodiy farovonligini oshiradi va ular o'z hududlarini himoya qilishda bevosita ishtirok etadilar. 2022-yilda ekoturizm orqali 60 milliondan ortiq odamning iqtisodiy holati yaxshilandi (UNWTO).<sup>232</sup>

Barqaror turizm infratuzilmasini yaratish: Ekoturizm barqaror infratuzilma orqali amalga oshiriladi, bu esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi.

SWOT Tahlil: Ekoturizmni rivojlantirishda ekologiyani muhofaza qilish:

| <b>Kuchli tomonlari (Strengths)</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | <b>Kuchsiz tomonlari (Weaknesses) -</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>-Tabiatni saqlashga qaratilgan yondashuv: Ekoturizmning asosiy maqsadi tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlashdir. Ushbu yondashuv ekologik boyliklarni asrab-avaylashga xizmat qiladi.</p> <p>-Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish: Ekoturizm mahalliy aholi uchun ish o'rnlari yaratadi va ularning iqtisodiy holatini yaxshilaydi. Mahalliy aholi turizm jarayonlarida faol ishtirok etadi va ular tabiatni himoya qilishga qiziqadi.</p> <p>-Sayyohlarning ekologik ongini oshirish: Ekoturizm sayyohlarning ekologiya haqidagi bilimlarini kengaytiradi va ularni tabiatni saqlashga rag'batlantiradi.</p> | <p>-Infratuzilmaning rivojlanmaganligi: Ko'p joylarda ekoturizmni rivojlantirish uchun zarur infratuzilma yetishmaydi. Yo'llar, transport va turar joylar ekologik xavfsizlik talablariga mos bo'lmasligi mumkin.</p> <p>-Ekologik yuk: Turistlarning ortiqcha ko'payishi tabiiy muhitga zarar yetkazishi mumkin. Bu esa ekoturizmning asosiy maqsadi — tabiiy muhitni muhofaza qilishni qiyinlashtiradi.</p> <p>-Moliyaviy cheklovlar: Ekoturizmga mablag' yetarli bo'lmasligi bu sohaning keng ko'lamda rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.</p>     |
| <b>Imkoniyatlari (Opportunities)</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | <b>Xavf-xatar (Threats)</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| <p>-Innovatsion texnologiyalar: Ekoturizmda innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi (qayta tiklanadigan energiya manbalari, chiqindisiz texnologiyalar va ekologik toza transport) barqarorlikni mustahkamlaydi.</p> <p>-Xalqaro hamkorlik va qo'llab-quvvatlash: Xalqaro tashkilotlar va hukumatlar tomonidan ekoturizmni qo'llab-quvvatlash turizmning yanada rivojlanishiga yordam beradi.</p> <p>-Sayyohlar oqimi: Ekoturizmga qiziqish ortishi, sayyohlar oqimining ko'payishi orqali soha barqaror iqtisodiy daromad keltirishi mumkin.</p>                                                                                              | <p>-Iqlim o'zgarishi: Iqlim o'zgarishi va global isish ekoturizm hududlariga zarar yetkazishi mumkin. Bu tabiiy muhitning degradatsiyasiga olib kelishi mumkin.</p> <p>-Noto'g'ri boshqaruv: Ekoturizmni noto'g'ri boshqarish tabiiy muhitga jiddiy zarar keltirishi, biologik xilma-xillikni kamaytirishi va turistik hududlarni yaroqsiz holga keltirishi mumkin.</p> <p>-Mahalliy hamjamiyatlarning noroziligi: Mahalliy aholi ekoturizmni rivojlantirishda chetda qolsa yoki manfaatdor bo'lmasa, ijtimoiy ziddiyatlar yuzaga kelishi ehtimoli bor.</p> |

<sup>232</sup> "UNWTO"ning 2022 yilgi global ekoturizm tadqiqotlari natijasi (UNWTO, 2022).

### **Ekoturizm va ekologiyani muhofaza qilish**

Ekoturizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi ekologiyani muhofaza qilishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishni talab etadi. Tabiiy joylar turistlar uchun jozibador bo'lsa-da, noto'g'ri boshqaruv ularga katta zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur:

- Qattiq nazorat va monitoring: Sayyohlik hududlarida turistlar sonini cheklash va tabiiy resurslarning holatini doimiy kuzatish zarur. Bu ekotizimni ortiqcha yukdan himoya qiladi va tiklanishiga imkon beradi.

- Mahalliy hamkorlik: Mahalliy aholining tabiatni asrashdagi bilim va tajribasidan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Ularning ishtiroki muhofaza qilishning uzoq muddatli natijalarini ta'minlaydi.

- Innovatsion texnologiyalar: Ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish chiqindilarni kamaytirish, suv va energiya resurslarini tejashga yordam beradi. Masalan, 2023-yilda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish 29% ga oshdi (IEA).<sup>233</sup>

#### **Xulosa va takliflar:**

1. Ta'lim va ongli sayohatchilarni tarbiyalash: Mahalliy aholi va sayyohlar uchun treninglar: Ekoturizm haqida ta'lim dasturlari yaratish, sayohatchilarga tabiiy resurslarni qanday asrash, barqaror turizmga qanday hissa qo'shish kerakligini o'rgatish. Tashqi tadqiqotlar va seminarlar: Ekoturizm va ekologiya bo'yicha seminarlar va konferentsiyalar tashkil qilish, bilim va tajribalarni baham ko'rish.

2. Barqaror infratuzilmani rivojlantirish: Ekologik xavfsiz infratuzilma: Ekoturizm hududlarida barqaror infratuzilma (masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, ekologik toza transport) yaratish. Transport va turar joylar: Transport tizimini va turar joylarni ekologik xavfsizlik talablariga moslashtirish.

3. Mahalliy jamoalar bilan hamkorlik: Jamoat ishtirokini kuchaytirish: Mahalliy aholi va jamoalarni ekoturizm jarayoniga jalb qilish, ularni faol ishtirokchilar sifatida o'qitish. Mahalliy mahsulotlarni qo'llab-quvvatlash: Mahalliy ishlab chiqaruvchilar va hunarmandlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, sayyohlar uchun mahalliy mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etish.

4. Monitoring va nazorat: Monitoring tizimini joriy etish: Ekoturizm faoliyatining ekologik ta'sirini kuzatish va baholash tizimlarini o'rnatish. Turistlarni cheklash mexanizmlari: Turistlar sonini cheklash, muayyan hududlarda og'ir yuklanishni kamaytirish.

5. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Raqamli platformalar: Ekoturizm xizmatlarini ko'rsatadigan raqamli platformalarni ishlab chiqish, sayyohlar va mahalliy jamoalar o'rtasida o'zaro aloqalarni osonlashtirish. Qayta tiklanadigan energiya va chiqindisiz texnologiyalar: Ekoturizmga qayta tiklanadigan energiya manbalaridan va chiqindisiz texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish.

6. Mahalliy madaniyat va an'analarni saqlash: Madaniy tadbirlarni tashkil etish: Mahalliy an'analarga asoslangan madaniy tadbirlarni o'tkazish, sayyohlarni mahalliy madaniyat bilan tanishtirish. Madaniy merosni asrash: Mahalliy madaniy meros va an'analarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar.

Ekoturizm va ekologiyani muhofaza qilishni barqaror ravishda rivojlantirish uchun ko'p tomonlama yondashuv talab etiladi. Yuqoridagi takliflar ekoturizm sohasidagi imkoniyatlardan foydalanish va ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi. Bunday yechimlar sayyohlar va mahalliy jamoalar o'rtasida barqaror hamkorlikni rivojlantirishga, atrof-muhitni muhofaza qilishga va kelajak avlodlar uchun sog'lom muhit yaratishga yordam beradi.

Ekoturizmning rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liqdir. Tabiiy hududlarni saqlash va biologik xilma-xillikni himoya qilish orqali kelajak avlodlar uchun barqaror turizmni ta'minlaymiz. Hukumatlar, mahalliy jamoalar va turizm tashkilotlari ekologik

<sup>233</sup> "IEA" ma'lumotlari asosida qayta tiklanadigan energiya bo'yicha global statistik ma'lumotlar (IEA, 2023). IEA - Renewables 2023 (<https://www.iea.org/reports/renewables-2023>) (IEA, 2023)

innovatsiyalarni joriy etib, tabiiy resurslarni asrab-avaylashda hamkorlik qilishlari maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman. Mahalliy jamoalarni jalb qilish, barqaror infratuzilma yaratish va ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llash kelajak avlodlar uchun sog'lom muhitni saqlab qolishning asosiy yo'llaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1-“Statista”ning ekoturizm bozor hajmi haqidagi ma'lumotlar (Statista, 2021). Statista - Global Ecotourism Market (<https://www.statista.com/statistics/1175154/global-ecotourism-market-size/>) (Statista, 2021).
- 2- “UNWTO”ning 2022 yilgi global ekoturizm tadqiqotlari natijasi (UNWTO, 2022).
- 3- “IEA” ma'lumotlari asosida qayta tiklanadigan energiya bo'yicha global statistik ma'lumotlar (IEA, 2023). IEA - Renewables 2023 (<https://www.iea.org/reports/renewables-2023>) (IEA, 2023)

## **IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ TURIZM KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISH**

**Axrorova Zarina Baxtiyorovna**

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

[zarinaaxrorova68@gmail.com](mailto:zarinaaxrorova68@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq turizm klasterlarini shakllantirish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Turizm klasterlarining barqaror rivojlanishi, mahalliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirishi, madaniy-merosni saqlab qolishi va iqlim o'zgarishi ta'siriga moslashuv chora-tadbirlari xorijiy tajribalar misolida ko'rib chiqilgan. Maqolada suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, “yashil” infratuzilma, ekologik sertifikat, “yashil marshrut”lar konsepsiyasi, hamjamiyat ishtiroki va iqtisodiy-ijtimoiy mexanizmlarni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Xulosa qismida iqlim o'zgarishiga qarshi barqaror qishloq turizm klasterlari yaratilishi faqat ekologik himoya bilan cheklanmasdan, keng ko'lamli iqtisodiy, huquqiy, innovatsion va marketing islohotlarini ham talab qilishi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** iqlim o'zgarishi, qishloq turizm klasteri, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik sertifikat, suvni tejash, yer degradatsiyasi, “yashil” infratuzilma, “yashil marshrut”, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar, xorijiy tajriba, ekoturizm.

**Kirish:** Hozirgi davrda iqlim o'zgarishi butun dunyoda eng muhim global muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Xalqaro ilmiy hamjamiyat e'tiboriga ko'ra, iqlimning isib borishi, suv resurslari tanqisligi, tez-tez takrorlanadigan tabiiy ofatlar, ekstremal ob-havo hodisalari nafaqat urbanizatsiyalashgan hududlarga, balki qishloq joylarida ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda[6]. Qishloq turizmi mintaqaviy rivojlanishda alohida o'rin tutishi mumkin, ammo iqlim o'zgarishi ushbu imkoniyatni cheklab, xususan, suv yetishmovchiligi, yer degradatsiyasi, ekotizimlar izdan chiqishi kabi tahdidlarni keltirib chiqaradi[5].

Qishloq turizm klasterlari — qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, tabiiy va madaniy meros, infratuzilma, transport, aholining ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlarini o'zaro birlashtirish orqali barqaror turizm mahsulotini yaratishga asoslangan hodisa[2]. Bunday klasterlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, ularda mahalliy aholi daromadlariga ijobiy ta'sir o'tkazish, madaniy merosni saqlash, qishloq hududlaridan insonlar oqimini kamaytirish, ayollar bandligini oshirish, yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish va shu bilan birga hududning jozibadorligini oshirish kabilar mujassam bo'ladi[10].

Iqlim o'zgarishi sharoitida esa suv va yer resurslari samarasiz boshqarilishi, ob-havo keskinligi, issiq to'lqinlar, energetik resurslar tanqisligi kabi muammolar qishloq turizm klasterlarining barqaror rivojlanishiga putur yetkazishi mumkin. Shu bois, iqlim risklarini kamaytirish, “yashil” marshrutlar yaratish, mahalliy aholi hamda turistlar uchun ekologik savodxonlikni oshirish eng muhim ustuvor vazifalardan biridir[4,8].